

Qambarov Barkamol Baxtiyorjon o'g'li,

O'lmasova Sevinch Navro'zbek qizi,

Xodiyeva Nilufar O'tkirjon qizi

Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti

Tibbiy profilaktika va Jamoat Salomatligi fakulteti. Tibbiy profilaktika ishi yo'nalishi talabalari

MAYMUN CHECHAK VIRUSI

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola hozirgi kunda butun dunyo bo'yicha insoniyatga hatar solib kelayotgan dunyo bo'yicha keng tarqalish holatida bo'lgan davlatlarni chegaralarda sanitariya holatini kuchaytirishga sabab bo'lgan maymun chechagi virusi qanday kasallik ekanligi uning tarixi yuqish yo'llari chin chekakdan farqli va o'xshashlik jihatlari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlari: Poksviruslar, Maymun chechag virusi, chin chechak virusi, virusologik, virusoskopiya, pashen tanachalari, orhtopoxvirus, psevdoshechsk viruslari.

Kirish. Poksviruslar oilasiga (pox chechak ing. so'z) bo'g'imoyoqli, parrandalar va sut emizuvchilar uchun patogen viruslar kiritilgan. Poksviruslar shakli g'ishtsimon bo'lib, o'lchami 250-390 nm ga teng. Bakteriyalar strukturasi eslatadi. Virion mag'iz qismidan, uni o'rab turgan 5 nm qalinlikdagi yupqa membrana va bir tekisda joylashgan silindrik strukturadan iborat. Tashqi tomondan esa (oqsil tana) oval strukturali o'rab turuvchi qobiqdan iborat. Poksviruslar reproduksiyasi faqat sitoplazmada kechadi. Odam uchun 4 avlod vakillari patogen hisoblanadi, bularga quyidagilar kiradi: **Orhtopoxvirus avlodiga:** odam chin chechagi va sigir chechagi (ospavaksina) viruslari kiradi. **Parapoxvirus avlodiga:** "sut sog'uvchilar tugunchasi" virusi (virus "uzelkov doyarok"), katta shoxdor hayvonlarning psevdoshechak viruslari kiradi. **Molluscipoxvirus avlodiga:** kontagioz molluska virusi kiradi. Yatapoxvirus avlodiga: tana va Yaba chechak viruslari (**maymun chechagi virusi**) kiradi.

Dolzarbli. Chinchechak kasalligi o'ta xavfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiradi. Chinchechak virusi tovuq embrionida yaxshi ko'payib, 48-72 soatdan so'ng xorion-allantoist qobig'ida mayda oqimtir va sog'lom qobiqdan yaqqol ajralib turuvchi jarohatlar hosil qiladi. Bundan tashqari, virus birlamchi odam, maymun, qo'y va boshqa hayvonlar undiriluvchi hujayra kulturalarida yaxshi ko'payadi. Virusning HPT natijasida hujayra yumaloqlashadi va kattalashadi, keyinchalik kultura shisha yuzasidan ajraladi. Vaksina qo'llanilgunga qadar avvallari chinchechak kasalligi bir yilda 1,5 mln. kishining o'limiga sabab bo'lgan. 1974-yilda Hindistonda 31262 ta kasallik qayd qilingan. Oxirgi marotaba kasallik 1977-yilda Somalida topilgan va bir necha yildan keyin 1980-yillarda Butun dunyo sog'liqni saqlash tashkiloti yer yuzida chinchechak kasalligi tugatilganligini e'lon qildi. Hozirgi kungacha chinchechak kasalligi qayd qilingani yo'q edi.

Tahlil va natijalar. Maymunlardagi chinchechak virusi. Bu virus biologik va antigenlik xususiyatlariga ko'ra odamlardagi chinchechak virusiga o'xshash. Ular, asosan, maymunlarda, ahyonda odamlarda kasallik qo'zg'atadi. Kasallik havo-tomchi yo'li bilan nafaqat maymunlardan, balki odamlardan ham yuqadi. Bu virus chinchechak virusidan yuqori haroratga chidamsizligi, sichqon va quyonlarga patogenligi, Mo-antigeni borligi bilan farq qiladi. Virus odamlarda chinchechakning yengil shakli ko'rinishida kechadi, ammo bu virusning odamlarga nisbatan o'ta patogen tipi paydo bo'lishi mumkin, degan taxminlar mavjud edi hozirgi kunda esa shu taxminning guvohi bo'lib turibmiz.

Etiologiyasi. Qo'zg'atuvchisi poxviruslar (chechak viruslar) oilasiga mansub virusdir. U birinchi marta 1958-yilda kasal maymunlardan ajratilgan. U tuzilishi va xususiyatlari bo'yicha inson chechak virusiga o'xshaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, maymunpox virusi antigen aloqa jihatdan sigir chechak virusiga qaraganda chinchechak virusiga ko'proq o'xshaydi. Tovuq embrionining qobig'ida yaxshi o'sadi va ko'payadi. Infeksiyaning uzatilishi asosan havo tomchilari orqali uzoq muddatli shaxsiy aloqada sodir bo'ladi, bu kasallikning o'tkir holatida bo'lgan odamning oila a'zolarini infeksiyaning eng katta xavfiga qo'yadi. Yuqtirish emlash yoki yo'ldosh orqali ham sodir bo'lishi mumkin (tug'ma maymunchechak). Maymunlar infeksiyaning manbai hisoblanadi, ammo infeksiya odamdan odamga yuqqan holatlar ham bo'lgan. Kasallik holatlari asosan Yevropada kuzatilgan, ammo Shimoliy Amerika, Afrika va Avstraliyada ham uchraydi. Asosan bu kasallik 16 yoshgacha bo'lgan bemorlarda aniqlanadi. Maymunchechak odamda kasallik sifatida birinchi marta 1970 -yilda Kongo Demokratik Respublikasida (sobiq Zair), Ekvatoriya provinsiyasining Vasankus shahrida aniqlangan. 1981—1986-yillarda KDR JSST kuzatuvini asosida 338 ta tasdiqlangan holatlar va 33 ta o'lim (o'lim darajasi 9,8 %) qayd etilgan. 1996—1997-yillarda KDRda ikkinchi odam epidemiyasi aniqlangan. 1991 va 1999-yillar orasida KDR da 511 ta holat qayd etilgan. Kongo havzasidagi kasallik KDRda endemik o'choq bo'lib qolmoqda va o'lim holatlari yuqori. Yana bir MPXV genetik xazina G'arbiy Afrikada topilgan. O'lim darajasi 1 % dan kam. 2022-yilda Yevropada maymunchechak epidemiyasi boshlanishidan oldin virusning odamdan odamga yuqishi qayd etilmagan. G'arbiy Afrika qit'asi 2003-yilda AQShning O'rta G'arbiy qismida cho'l itlari egalari orasida Afrikadan tashqarida birinchi maymun chechak epidemiyasini boshdan kechirdi. Xabar qilinishicha, 71 kishi kasallangan, ulardan hech biri vafot etmagan. An'anaviy maymunchechak tropik o'rmonlari ekologiyasi bilan chegaralangan. Bu holat 2005-yilda buzildi, o'shanda Sudanda (hozirgi Janubiy Sudan) 49 ta o'limsiz holat qayd etilgan. Genetik tahlil shuni ko'rsatadiki, virus Sudanda paydo bo'lmagan, lekin katta ehtimol bilan KDR dan kirib kelgan. Markaziy va G'arbiy Afrikada, xususan, Kongo Demokratik Respublikasida maymunchechakning ko'proq holatlari qayd etilgan, 2011 va 2014-yillar oralig'ida yiliga 2000 ta holat ma'lum. Yig'ilgan ma'lumotlar ko'pincha to'liq emas va tasdiqlanmagan bo'lib, vaqt o'tishi bilan maymunchechak holatlari sonini real baholashni qiyinlashtiradi. Biroq, 2018-yil holatiga ko'ra, maymunchechak bilan kasallanganlar soni ko'paygan va tarqalish geografiyasi kengayganligi taxmin qilinmoqda.

Klinikasi. Maymunchechak toshmasi, Inkubatsion davri 7 kundan 19 kungacha davom etadi. Kasalik birdan, o'tkir, tana harorati ko'tarilishi, bosh va mushaklardagi og'riq bilan boshlanadi, xuddi shunday bosh aylanishi, ko'ngil aynishi va qusish ham kuzatilishi mumkin. Keyinchalik kasallik dinamikasi chinchechak simptomatikasiga o'xshash bo'ladi. Yengil va o'rta og'ir formasi ko'proq uchraydi. Maymunchechakning odam chechagidan asosiy farqi 90 % bemorlarda limfadenit kuzatiladi. Kasallikning 3-4 kunlarida toshmalar paydo bo'ladi, dastlab yuzda, keyin qo'llarda, biroz keyinroq butun tanani egallaydi. Boshida toshmalar diametri 6-10 mm gacha bo'ladi, keyin esa shu joyda papula hosil bo'ladi, keyinchalik vezikulaga(ichida rangsiz suyuqlik saqlagan pufakcha) aylanadi. Undan keyin qobiqcha hosil bo'ladi va oxirida chandiq qoladi. Bemor holati tez yomonlashadi, taxikardiya paydo bo'ladi, nafas olish tezlashadi, arterial bosim pasayadi, keyin esa bemorning holati asta-sekin yaxshilanadi. Kasallikning yengil shaklida bemor umumiy holati normal saqlanadi. Kasallikning umumiy davomiyligi 2-3 hafta.

Davolash. Maymunchechakni davolash inson chechak kasalligini davolash bilan bir xil tamoyillarga asoslanadi. Yevropa Ittifoqida tekovirimat bir nechta chechakvirus kasalliklarini, shu jumladan maymunchechakni davolash uchun tasdiqlangan.

Oldini olish. Chechakka qarshi emlash odamlarni maymunchechak bilan yuqtirishdan himoya qiladi, chunki ular yaqindan bog'liq viruslardir va vaksina hayvonlarni maymunchechak bilan eksperimental halokatli infeksiyalardan himoya qiladi. Bu odamlarda ishonchli tarzda isbotlanmagan, chunki chechakka qarshi muntazam emlash chechakni yo'q qilgandan keyin to'xtatilgan edi.

Prognozi. Odatda yaxshi yakunlanadi, asosan vaksinatsiya qilinmagan 10 % bemorlarda o'lim holati kuzatiladi. Kuzatilishi mumkin bo'lgan asoratlar: ensefalit, meningoensefalit, pnevmoniya, sepsis.

2022-yilda avj olishi: Maymunchechak epidemiyasi (2022)

2022-yil may oyida dunyoning ko'plab mamlakatlarida maymunchechak infeksiyasining yangi holatlari aniqlandi. Mamlakatlar va ulardagi tasdiqlangan holatlar soni:

1. Ispaniya — 30, 2. Portugaliya — 23, 3. Buyuk Britaniya — 20, 4. Italiya — 3, 5. Belgiya — 2,
6. Kanada — 2, 7. Avstraliya — 2, 8. Germaniya — 1, 9. Shvetsiya — 1, 10. Fransiya
— 1, 11. AQSh — 1, 12. Niderlandiya — 1, 13. Isroil — 1, Jami: 88 ta holat.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak butun dunyoga tarqalayotgan bunday yuqumli kasaliklarning turli patogen turlari chiqib kelmoqda kunlar o'tgan sayn. Dunyo yana bir pandemiyani boshidan kechiradimi yoki epidemiya holatida qoladimi buni hozircha bilmaymiz, lekin barcha davlatlar shu jumladan O'zbekiston ham bu maymun chechak virusini kirib kelishini oldini olish uchun kerakli chora tadbirlarni ko'rmoqda. Butun dunyoda shu kasaliklar tarqalishi keskinlashadimi degan havotir bilan tayorgarlik ko'rilmogda. Biz aholimizdan nafaqt maymun chechak balki bashqa yuqumli kasaliklarni ham oldini olish uchun shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilishlarini so'rab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1) Mikrobiologiya Immunologiya Virusalogiya. I.Muhamedov
- 2) Mikrobiologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari qo'llanmasi. SH.R. Aliyev
- 3) Mikrobiologiya va Immunologiya. S.Kurbonova
- 4) <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Maymunchechak>